

## SANOAT KORXONALARINI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING ILMIIY -USLUBIY ASOSLARI

**Achildiyeva Zilola Ergashovna**

Termiz Iqtisodiyot va servis universitetining  
1-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi rivojlanish davrida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bu bo'yicha qilinadigan ishlar va uning statistik tadqiq etishning ilmiy uslubiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek bugungi rivojlangan davrda sanoat korxonalarini inson, davlat, jamiyat hayotidagi o'rnini haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Sanoat, agrosanoat, yengil sanoat, og'ir sanoat, korxonalar.

### ABSTRACT

In this article, the scientific methodical basis of increasing the production efficiency of industrial enterprises in the period of today's development, the work to be done in this regard, and its statistical research are revealed. Also, an opinion was expressed about the role of industrial enterprises in the life of a person, state, and society in today's developed era.

**Key words:** Industry, agro-industry, light industry, heavy industry, enterprise.

Sanoat- deb xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko'rsatovchi korxonalariga aytiladi.

XX-asrning 80-yillarida qabul qilingan tasniflashga ko'ra, sanoat yiriklashtirilgan 18 tarmoqqa bo'linadi: elektroenergetika; yoqilg'i Sanoati; qora metallurgiya; rangli metallurgiya; kimyo va neft kimyosi Sanoati; mashinasozlik va metallga ishlov berish; o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyulozaqog'oz Sanoati; qurilish materiallari Sanoati; qurilishkonstruksiyalari va detallari Sanoati; oyna va chinnifayans Sanoati; yengil Sanoati; oziq-ovqat Sanoati; mikrobiologiya Sanoati; unyorma va aralash yem Sanoati; tibbiyot Sanoati; poligrafiya Sanoat Bo' sanoat tarmoqlari ham o'z navbatida- ishlov beruvchi sanoat va undiruvchi sanoat turlariga guruhlanadi. O'zbekiston xududida Sanoat taraqqiyoti ildizini uzoq tarixga ega bo'lgan hunarmandchilik tashkil etgan. Samarqand, Buxoro, Urganch, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon kabi shaharlarda mayda va yirik hunarmandchilik rivoj topdi. O'zbekistonda haqiqiy ma'nodagi Sanoatning paydo bo'lishi XX-asrning 2-

yarmiga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida o'lkaga rus sanoatchilari va Rossiya kapitali ham kirib keldi va xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan Sanoat tarmoqlari (paxta tozalash, vino, araq, konserva, paxta moyi zavodlari) paydo bo'ldi va O'zbekistonda Sanoat Rossiya sanoati va iqtisodiyoti bilan bog'liq holda rivojlandi. 1941-1945-yillardagi urush davrida O'zbekistonga 90 ta sanoat korxonasi ko'chirib keltirildi, ularning kupi mashinasozlik, asbobsozlik korxonalari edi. Urushdan keyingi yillarda ko'pgina korxonalar qurilishi natijasida mashinasozlik tarmoqlari ko'paydi, samolyotsozlik, asbobsozlik, motorsozlik, elektroapparat, elektr dvigatel, ekskavator, kompressor zavodlari qurildi. Toshkent, Olmaliq, Chirchiq, Samarqand, Navoiy, Farg'ona, Yangiyo'l, Namangan, Sho'rsuv va boshqa shaharlar kimyo industriyasi markaziga aylandi. Bekobod, Chirchiq, Toshkent shahrida qora metallurgiya, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq, Uchquduq sh.lari rangli metallurgiya markazlari hisoblanadi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin Sanoatda tub islohotlar amalga oshiriddi, ko'pgina tarmoqdardagi Sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiylashtirilib, davlat aksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy va boshqa tashkiliy huquqiy mulk shakllariga aylantirildi. Respublika iqtisodiyotida muhim o'rinda turadigan Sanoat tarmoqlarida tuzilmaviy qayta tarkiblash amalga oshirildi, ko'plab kichik va o'rta korxonalar tashkil topdi (2000-yilda 6,4 ming o'rta, 20,4 ming kichik korxonalar ishladi). Chet el kapitali bilan hamkorlikda ko'pgina Sanoat tarmoqlarida qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Sanoat tarmoqlariga, ayniqsa, mahalliy xom ashyoni qayta ishlaydigan tarmoqlarga chet el investitsiyalarini jalb etish faol davom etmoqda. Respublika sanoatida tarmoklarning tutgan o'rni har xil. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. Kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Sanoat taraqqiyotida yoqilg'ienergetika kompleksining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, ko'mir, neft va neftni qayta ishlash sanoati, energetika kiradi. O'zbekiston jahondagi 10 ta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi.

O'zbekistonda Sanoat tarmoqlarida mulk shakllarini o'zgartirish va tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga qaratilgan tub islohotlar mamlakat mustaqilligini mustahkamlashni, O'zbekistonning kelajaqda rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqishi va jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydi. 2002-yilda O'zbekiston Sanoatda 1467 ta o'rta va yirik ishlab chiqarish birlashmalari va korxonalar ishladi. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar salmog'i umumiy ishlab chiqarish

hajmining 88,5%ni tashkil etdi. 396 dan ortiq nomdagi yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Davlat korxonalari soni salmogi 4,6%, nodavlat sanoat korxonalari soni 95,4% ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining 20,5% davlat korxonalarida, 79,5% nodavlat korxonalarida band bo'ldi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmida davlat korxonalari hissasi 28,6%ni, nodavlat sector korxonalari hissasi 71,4% dan iborat bo'ldi (yana Avtomobil sanoati, Yengil sanoat, Yog'moy sanoati, Mashinasozlik sanoati kabi sanoat tarmoklari to'g'risidagi alohida maqolalarga q.).Chet ellarda Sanoatning rivojlanishi sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda iqtisodiyot taraqqiyoti katta hajmda jamg'arilgan texnika jihatidan ilg'or kapital asosida va mavjud yuqori malakali ishchi kuchi bilan ta'minlanadi. Ularga AQSH, Kanada, Yaponiya, ko'pgina G'arbiy Yevropa mamlakatlari kiradi.

Korxonalar – Yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt. Mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rstish, ishlarni bajarish uchun tashkil etiladi. Iqtisodiy faoliyatning xilma-xil turlari bilan shug'ullanadi. Davlat, munitsipial, jamoa, qo'shma, yakka (oila, xususiy) korxonalar bor.<sup>1</sup> Korxonalar tushunchasi, turlari va vazifalari. Huquqiy shaxs mavqeiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt korxonalar hisoblanadi.

Korxonalar o'z faoliyati maqsadlarini ro'yobga chiqarishga o'z mahsuloti, ishlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish hamda ana shu asosda mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini hamda korxonalar mol-mulki egasining manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishadi. Har bir korxonada o'z faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy, mehnat, moliyaviy, energetik va boshqa zaruriy resurslar mavjud bo'lib, korxonalar ularga egalik qilish, umumxalq mulkining unga tegishli bo'lgan qismidan foydalanish va boshqarish huquqiga ega. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vazifasi aholini turli xalq iste'moli mollariga, maishiy va madaniy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir. Ishlab chiqarish korxonalarini xarakterlovchi asosiy belgilari uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning, ishlab chiqarishning texnikaviy birligi va korxonaning iqtisodiy birligidir. Korxonaning ishlab chiqarish texnikaviy birligi deb, uning barcha tarkibiy qismlarining bir-biri bilan ishlab chiqarish jarayonlarida ma'lum ketma-ketligda bajarilishiga ko'ra bog'langanligi va bir-birini o'zaro ta'minlashiga aytiladi. Har bir

korxonalar bir qator tarkibiy qismlardan iborat. Har bir qism (sex, uchastka) xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish jarayonining ma'lum vazifalarini bajaradi. Ularning maqsadi ishlab chiqarish dasturini sifatli bajarishga qaratilgan. Korxonaning iqtisodiy birligi deganda, uni tashkil qiluvchi barcha tarkibiy qismlari korxonaning markazlashgan omboridan sexlarga reja asosida materiallar yetkazib berishni ta'minlashi tushuniladi. Har qanday korxonaning maqsadi uning faoliyati asosida avvaldan o'ylangan pirovard natijaga erishishdir. Korxonalar o'z oldiga ongli ravishda maqsad qo'yib, fikriy model yarata oladi va obyektiv sharoitlarni hisobga oladi. Korxonalar o'z maqsadlariga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajaradilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu vazifalar:

Tizimli bozor islohotlarini baro etish, erkin iqtisodiyot jarayonlarini yanada takomillashtirish, sanoat korxonalaridagi tarkibiy o'zgarishlarni puxta amalga oshirish, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash usulini davom ettirish – O'zbekiston yutug'ining asosiy omilidir. Davlat yalpi ichki mahsulotining doimiy o'sishi jahon bozorida qulay kon'yuktura yoki an'anaviy xomashyo tarmoqlari, ayrim xomashyo va materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga ta'minlanmoqda. Sanoat -respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat- aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishi, sanoat tarmog'ining rivojlanishiga olib keladi. Barcha resurslarni sanoat sohasida qazib olingan, qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, nomenklatura va assortimentning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalash jarayonlari takomillashadi. Sanoat tarmog'i yirik ishlab chiqarish instituti bo'lishi bilan birgalikda, yangi ish joylarini tashkillatish va aholini ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat tarmog'ini ish bilan bandlikni oshirishdagi yana bir muhim jihati, qo'shimcha qiymat yaratish va qayta ishlashdagi faolligi hisobiga yuzaga chiqadi. Ya'ni, band bo'lgan xodimlar soni, qayta ishlovchi korxonalarining ko'paygani va qo'shimcha qiymatni ortgani sari sanoatda ham ortaveradi. Demak, qo'shimcha qiymat va qayta ishlashning o'sishi bilan sanoatda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi o'rtasida to'g'ri bog'liklik bor. Jahon iqtisodiyotida ishtirok etayotgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga- sanoat yordam beradi. Natijada, barcha davlatlarning mehnat va moliyaviy resurslari, tabiiy, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi. Kimyo, neft-gaz va

neft-kimyano sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materillari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlari qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar, ishlab chiqarishni ko'paytirish va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "...mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni"<sup>1</sup> amalga oshirish maqsadida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

Chunki, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash hamda ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun, milliy sanoat salohiyati, izchillik bilan amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli tobora yuksalib bormoqda. Sanoat majmuidagi tarkibiy o'zgarishlardan biri milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yo'nalishlaridan hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida tarkibiy qayta tuzish jarayonlari yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan ifodalanadi. O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakat tarkibiy siyosatining bosh maqsadlaridan biri hamda sanoatda tarkibiy qayta tuzishni amalga oshirish orqali ifodalanadi. Shuning uchun quyidagilarga alohida urg'u berish lozim : sanoat tarmog'ini tarkibiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va sanoat mahsuloti ishlab chiqarish kabilar.

Mustaqillikning o'tgan davrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tuzilmasiga e'tiborni qaratsak, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yoqilg'i-energetika tarmoqlari yuqori sur'atlar bilan o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Qurilish materillari ishlab chiqarish, mashinasozlik sanoati hamda yengil sanoatning yirik tarmoqlari: ip yigiruv va to'qimachilik sanoati sezilarli darajada, hamma vaqt yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bozor islohotlarini tizimli ravishda kengaytirish, kelgusidagi sanoat majmuidagi tarkibiy o'zgarishlarning muhim ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Mazkur tarmoqlarda yaratilayotgan mahsulotlarga bo'lgan ichki va tashqi talab sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari ko'lamiga bog'liq. Iste'mol krediti tizimini keskin kengaytirish va takomillashtirish mamlakat aholisining real daromadi va xarid qobiliyatini yanada oshirishda sanoat majmuidagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini

oshiruvchi ichki talab ulushi oshishi bilan xarakterlanadi. Sanoatda yaratiladigan mahsulotlarga jahon bozoridagi bahoning qulay kon'yunkturaga ega bo'lishi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sanoat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va tashqi omil ta'sirining oshishi bilan tavsiflanadi.

Sanoatda xususiy mulk ulushining yanada oshishi, sanoat korxonalarini isloh qilish, tarkibiy qayta tuzish, tarmoq korxonalari boshqaruvini bozor tamoyillari asosida shakllantirish, sanoat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakat makroiqtisodiy barqarorligining oshishi bilan birga, aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sir etmoqda va ularning davom ettirilishini davrning o'zi taqozo etadi. Chunki insoniyat borki faqat rivojlanish sari boradi. Buning isboti sifatida turli rivojlangan davlatlarning o'z rivojlanish yo'lini misol qilib olishimiz mumkin. Birgina bizni davlatimizning mustaqillik davridagi iqtisodiy rivojlanish yo'li, „**2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi**” va „ 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” o'z ichiga oladi. Bulardan ko'rinib turibdiki insoniyat yashar ekan, yer yuzida rivojlanish yangi -yangi cho'qqilarni zabt etaveradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'z ME .Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.2021 yil.
3. <https://azkurs.org/1-korxonona-tushunchasi-turlari-va-vazifalari-korxonani-tashkil.html>.
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining investitsion faolligini oshirish muammolari va ustuvor yo'nalishlari respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 25.04.2019.